

2025-yil 24-sentabr

## **“Chirchiq” texnoparki — O‘zbekiston-Koreya hamkorligining navbatdagi maydoni**



Toshkent viloyati va Janubiy Koreyaning Kyonsang-Namdo provinsiyasi o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bugun

“Chirchiq” kimyo-industrial texnoparkida o‘tkazilgan biznes-forum bu yo‘nalishdagi amaliy qadamlardan biri bo‘ldi.




Tadbirda Toshkent viloyati hokimi Zoir Mirzayev, mahalliy tadbirkorlar, shuningdek, Kyonsang-Namdo gubernatori Pak Van Su boshchiligidagi Koreya delegatsiyasi a'zolari ishtirok etdi. Aytish joizki, Toshkent viloyatida bugungi kunda 10 ta erkin iqtisodiy va 70 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritmoqda. Ular muayyan sohalarga ixtisoslashgan bo'lib, investorlar uchun qulay shart-sharoitlar, shu jumladan soliq va bojxona imtiyozlari taklif qilinmoqda.

Biznes-forumning aynan "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkida tashkil etilgani bejiz emas. Hozirgacha mazkur hududda umumiy qiymati 85 million dollarga teng 23 ta loyiha amalga oshirilib, 977 ta yangi ish o'rni yaratilgan. Janubiy Koreya sarmoyasi asosida bu yerda faoliyat yuritayotgan ikki kompaniya — "DHMT GLOBAL" va "IOTA Co" — texnoparkdagi hamkorlikning amaliy namunasidir.



Ovoz jihozlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "DHMT GLOBAL" MCHJ 2 million dollarlik investitsiya orqali 30 nafar mutaxassisni ish bilan ta'minlagan. "IOTA Co" MCHJ XK esa avtomobil konditsionerlari uchun quvur va shlanglar ishlab chiqarish loyhasiga 6,1 million dollar yo'naltirib, 150 ta ish o'rni yaratdi.

Biznes-forum doirasida koreyalik mehmonlar texnoparkda amalga oshirilayotgan loyihalar bilan yaqindan tanishib, kelgusidagi hamkorlik istiqbollarini muhokama qildilar.











**“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**

**source:**

*"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/chirchiq-texnoparki-o-zbekiston-koreya-hamkorligining-navbat>